



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRINING
BUYRUG‘I**

Toshkent sh.

№ 89

2024-y. “20” fevral

**Bolalar musiqa va san‘at maktablarining o‘quv-me‘yoriy hujjatlarini
takomillashtirish hamda attestatsiya jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalar musiqa va san‘at maktablari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2016-yil 5-maydagi 144-son hamda “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son Qarori ijrosini ta’minlash hamda bolalar musiqa va san‘at maktablarining o‘quv-me‘yoriy hujjatlarini takomillashtirish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari A.Tadjixanovning 2024-yil 19-fevraldagi 48-son bildirishnomasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bolalar musiqa va san‘at maktablarining o‘quv-me‘yoriy hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha respublika ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda ishchi guruh) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi bolalar musiqa va san‘at maktablari, ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlarining mutaxassislik va jismoniy tarbiya fanlari bo‘yicha pedagog kadrlarining o‘quv fanidan malaka sinovlari (keyingi o‘rinlarda – malaka sinovlari) test, ijodiy va amaliy shaklda 2024-yil oktyabr-noyabr oylarida o‘tkazilishi belgilansin.

4. Ishchi guruh (Salixov):

bolalar musiqa va san‘at maktablarining amaldagi o‘quv-me‘yoriy hujjatlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazsin;

malaka sinovlarida foydalaniladigan ijodiy topshiriqlar ro‘yxatini shakllantirsin;

15 kun muddatda o‘quv-me‘yoriy hujjatlarni takomillashtirish hamda malaka sinovlarini tashkil etish bo‘yicha asoslangan takliflarni kirit sin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari:

Ishchi guruh a'zolari tarkibiga kiritilgan mutaxassislarni joriy yilning 1 – 15-mart kunlari Toshkent shahriga xizmat safariga yuborilishini ta'minlasin; malaka sinovlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni belgilangan tartibda amalga oshirish choralarini ko'rsin.

6. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti (Shermonov):


institutning pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi uchun ajratilgan o'quv binosidan Ishchi guruh faoliyatini tashkil etish uchun zarur texnika va vositalar bilan ta'minlangan alohida xona ajratish;

institut yotoqxonasining pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi uchun ajratilgan qismiga ishchi guruh a'zolarini joylashtirish choralarini ko'rsin.

7. Ishchi guruhning xizmat safari bilan bog'liq sarf-xarajatlari asosiy ish joyidan qoplanishi belgilab qo'yilsin.

8. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari A.Tadjixanov zimmasiga yuklansin.

Vazir



O. Nazarbekov